

**ILLUSTRATSIYALAR ORQALI BOLALARNI KITOBA QIZIQTIRISH USULLARI
VA ULARNING BOLA PSIXOLIGIYASIGA TA'SIRI****Jurayeva Gulmira Zafar qizi**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Dastgoh va kitob grafikasi mutaxassisligi 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15059598>

Annotatsiya. Mazkur maqolada illustratsiyalar orqali bolalarni kitob o'qishga qiziqtirish usullari va ularning bolalar psixoligiyasiga ta'siri o'r ganib chiqildi. Illustratsiyalar bolalarni ijodiy fikrlashni va tasavvurlarini shakllantirishi, diqqat va e'tiborni rivojlanira olish imkoniyatlari haqida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: animatsiyalar va interaktiv elementlar, dinamik tasvirlar, kognitiv rivojlanish, emotsiyonal rivojlanish, vizual jozibadorlik.

**WAYS TO INTEREST CHILDREN IN BOOKS THROUGH ILLUSTRATIONS AND
THEIR IMPACT ON CHILD PSYCHOLOGY**

Abstract. Through illustrations, this article examined the ways in which children are interested in reading books and their impact on child psychology. Illustrations were analyzed about the possibility of children forming creative thinking and imagination, being able to develop attention and attention.

Keywords: animations and interactive elements, dynamic images, cognitive development, emotional development, visual appeal.

СПОСОБЫ ВЫЗЫВАНИЯ ИНТЕРЕСА ДЕТЕЙ К КНИГАМ С ПОМОЩЬЮ**ИЛЛЮСТРАЦИЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ПСИХОЛОГИЮ ДЕТЕЙ**

Аннотация. В статье рассматриваются методы поощрения детей к чтению книг с помощью иллюстраций и их влияние на детскую психологию. Иллюстрации анализировались на предмет их способности формировать творческое мышление и воображение детей, а также развивать внимание и сосредоточенность.

Ключевые слова: анимация и интерактивные элементы, динамические изображения, когнитивное развитие, эмоциональное развитие, визуальная привлекательность.

Illustratsiyalar orqali bolalarni kitobga qiziqtirish usullari va ularning bola psixologiyasiga ta'siri bu bolalar adabiyotida muhim bir masala hisoblanadi. Illustratsiyalar nafaqat kitobning vizual jozibasini oshiradi, balki bolalar psixologiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarni kitobga qiziqtirish uchun illustratsiyalarni qanday ishlatish va ularning psixologik ta'sirlarini ko'rib chiqamiz.

Illustratsiyalar orqali bolalarni kitobga qiziqtirish usullari quyidagilardan iborat:

Bolalarga vizual joziba yaratish ya’ni bolalar yoshiga qarab o‘zlarining diqqatlarini vizual narsalarga qaratadilar. Rang-barang va yorqin tasvirlar kitobni o‘qish jarayonida bolalarga qiziqarli tuyiladi va e’tiborini torta oladi. Illyustratsiyalar orqali bolalar kitobining vizual ko‘rinishi ularning kitobga qiziqishini uyg‘otadi.

Yana bir usullaran biri shakllar va ranglar tasviri orqali bo‘lib, kichik yoshdagi bolalarni diqqatini torta olish uchun yirik shakllar, quvnoq ranglar va soddalashtirilgan tasvirlar juda yaxshi samara beradi. Bu bolalar uchun tasvirlarni tushunishni osonlashtiradi va kitobni ko‘proq o‘qishga undaydi.

Tasvirlar orqali hikoya qilish usuli bolaga hikoyaning muhim jihatlarini tushuntirishda muhim hisoblanadi. Ya’ni qahramonlar, voqealar va muhitni tasvirlash orqali bolalar kitobning mazmunini yanada yaxshiroq tushunadilar. Bu esa bolalar uchun qiziqarli va ta’limiy jihatdan foydali ekani ham isbotlangan.

O‘zgaruvchan rasm elementlari orqali bolalarga har bir sahifaning mazmuni va qay tarzda rivojlanishini tushunishga yordam beradi. Bu esa bolalarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni saqlab qolishda qo‘l keladi.

Elektron kitoblar yoki raqamli formatdagi kitoblarda animatsiyalar va interaktiv elementlarni qo‘sish bolalarni kitobga yanada qiziqtiradi. Masalan, kichik tugmalarni bosish, harakatlanuvchi rasmlar yoki o‘yin elementlari bolalarga o‘qishni qiziqarli va jozibador qiladi.

Kitoblarda hayajonli va dinamik tasvirlarni qo‘llanilishi, masalan, o‘zgaruvchan rasm sahifalari yoki sahifalar orasida ko‘chib yuradigan tasvirlar bolalarni o‘qishga ko‘proq jalb qiladi.

Bolalar o‘zlarini qahramonlar bilan bog‘lashni yaxshi ko‘radilar. Ularning yuz ifodalari, xatti-harakatlari va his-tuyg‘ularini tasvirlash orqali bolalar qahramonlarning his-tuyg‘ulariga ta’sir qilishadi. Kichik yoshdagi bolalar uchun juda murakkab yoki ortiqcha tafsilotlarga ega tasvirlar tushunishni qiyinlashtirishi mumkin. Shuning uchun, oddiy va aniq tasvirlar bolalar uchun juda mos keladi. Bu esa ularga kitobdagi voqealarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Illustratsiyalarning bola psixologiyasiga ta’siri quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Illustratsiyalar bolalarda kognitiv rivojlanishga ham yordam beradi. Bolalar ko‘pincha tasvirlarni matn bilan birga ko‘rishni osonroq tushunadilar. Rasm yoki chizma matnni yoritib, voqeani aniqroq tushunishga yordam beradi. Illutratsiyalar bolalarga o‘z fikrlarini izohlash va o‘ziga xos tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir yosh bosqichi bolalar uchun turli xil tasvirlar va rasmlarni talab qiladi. Masalan, kichik bolalar (1-3 yosh) uchun katta va sodda shakllar ishlataladi, biroz kattaroq yoshdagi bolalar (4-6 yosh) uchun esa murakkabroq tasvirlar va jonli sahnalar qo‘llaniladi.

Illustratsiyalar bolaning kognitiv rivojlanishiga yordam berishi bilan birga emotsiyal rivojlanishga ham ko'maklashadi. Masalan, Bolalar o'zlarini kitobdag'i qahramonlar bilan bog'lash orqali boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishga va ular bilan empatiya qilishga o'r ganadilar. Masalan, baxtiyor, qayg'uli yoki qo'rqqan qahramonlarni ko'rish bolalarni o'z his-tuyg'ularini aniqlash va boshqalarning hislarini tushunishda shuningdek o'z his-tuyg'ularini ifodalashda ham yordam beradi.

Illustratsiyalarning yana bir muhim jihatlardan biri bolalarni ijodiy fikrlashni va tasavvurlarini rivojlantiradi. Rasm yoki tasvirlar bolalar uchun yangi dunyo va g'oyalarni yaratadi, bu esa ularda ijodiy fikrlash va yangi fikrlarni tasavvur qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

Diqqat va e'tiborni rivojlantira oladi. Interaktiv va rang-barang tasvirlar bolalarning diqqatini bir nuqtaga toplashga yordam beradi. Bu, ayniqsa, bolalar kitoblarida o'qish va ta'limni ko'proq qiziqarli va yoqimli qilishda muhim ahamiyatga egadir. Kitobdag'i tasvirlar, bolalarni o'qishga va ko'proq vaqt o'tkazishga undaydi, chunki ular kitobni o'qish va yangi tasvirlar ko'rishni xohlashadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni xulosa qilib ayta olamizki, illustratsiyalar bolalar kitoblarining muhim elementlaridan biri bo'lib, nafaqat vizual jihatdan jozibadorlikni oshiradi, balki bola psixologiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular bolalar uchun o'qishni osonlashtiradi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, emotsiyal va kognitiv rivojlanishiga ko'maklashadi. Bolalarga qiziqarli, harakatli va hayajonli tasvirlar taqdim etish, ularning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'qishga yanada ko'proq jalb qiladi. Biz kitob grafikasi rassomlari o'laroq yuqoridagi masalalarga ahamiyat bergen holda zamonaviy texnikalardan foydalanib o'zbek milliy bolalar adabiyotini mazmun mohiyatini ochib berishda bir biridan rang barang, qiziqarli illustratsiyalar tasvirlay olishimiz lozim.

REFERENCES

1. Kitob grafikasida kompozitsiya hamda adabiyot asarlarini chuqurroq o'r ganishda illyustratsiyaning ahamiyati I.Yuldashev, B.Qurbanova Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7
2. O'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda illyustratorlar hayoti va ijodiy faoliyatini o'r ganishning axamiyati. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov Academic Research in Educational Sciences.
3. How Illustrations Impact Child Development and Learning Through Books.

4. Zarifova D. IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARING BADIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ART-TERAPIYANING O'RNI VA AHAMIYATI //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 3. – C. 271-274.
5. Zarifova, D. O. qizi. (2023). SHARQ GRAFIKA SAN'ATIDA MAISHIY JANRNING O'RGANILISHI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(9), 57–62. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1259>
6. Submitted for Publication in Reading Psychology. Prepared with the T&F Journal Template.
7. The Influence of Illustrations on Children's Book Preferences and Comprehension
8. Suggested short title: The Influence of Illustrations
9. Jamye B. Brookshire
10. Stephen F. Austin State University
11. Lauren F. V. Scharff, Ph.D
12. Stephen F. Austin State University
13. Laurie E. Moses
14. Stephen F. Austin State University
15. Address Correspondence to: Lauren Scharff, Stephen F. Austin State University, Box 13046 SFA Station,
16. Nacogdoches, TX 75962; lscharff@sfasu.edu
17. Brookshire, J., Scharff, L. & Moses, L. (2002). The influence of illustrations on
18. children's book preferences and comprehension Reading Psychology, Vol 23(4), 323-339.
19. rookshire, J., Scharff, L. & Moses, L. (2002). The influence of illustrations on
20. children's book preferences and comprehension Reading Psychology, Vol 23(4), 323-339
21. Лакизенко Елизавета Дмитриевна, & Макарова Татьяна Львовна (2022). ДЕТСКАЯ ИЛЛЮСТРИРОВАННАЯ КНИГА КАК ИСТОЧНИК ВОСПРИЯТИЯ РЕАЛЬНОСТИ: ТЕМЫ, ОБРАЗЫ, ЦВЕТОВОЕ РЕШЕНИЕ. Вестник славянских культур, (66), 368-378.
22. Sobirov S.T. (2021). ILLYUSTRATSİYALARNING BOLALAR UCHUN NASHR QILINADIGAN KITOBLARDAGI VAZIFALARI. Экономика и социум, (10 (89)), 1329-1335.
23. Brookshire, J., Scharff, L. & Moses, L. (2002). The influence of illustrations on
24. children's book preferences and comprehension Reading Psychology, Vol 23(4), 323-339.